E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

JOY NOMLARINI O'RGANISHNING LINGIVISTIK, GEOGRAFIK VA TARIXIY USULLARI

Mamatisakov Jahongirmirzo

Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti

m.jahongirmirzo94@gmail.com

Botirov Egamberdi

Farg'ona davlat universiteti

Geografiya yo'nalishi birinchi bosqich talabasi

Annotatsiya: Geografik nomlarni o'rganishdagi bunday keng, majmuali yondashuv turli fanlardan qo'llanadigan usullardan bir vaqtni o'zida foydalanish zaruratini keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, geografik nomlar ma'lum mintaqaga, hududga bog'lingan bo'lib ularni alohida o'rganish emas balki butun mintaqa toponimiyasi bilan birga o'rganilganda kutilgan ilmiy natijaga erishish mumkin bo'ladi. Yuqoridagi qonuniyatlardan kelib chiqib toponimik tadqiqot usullarini uchta fan doirisida umumlashtirib ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. O'z navbatida har bir fan uchun xos bo'lgan maxsus usullar toponimik tadqiqotlar samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: Joy nomlari tadqiqot usullari, tarixiy usul, lingivistik usul, geografik nomlar, nom berish usullari.

Kirish. Har qanday toponimik tadqiqotlar geografik usullardan foydalanish bilan boshlanishini yuqoridagi tadqiqot tamoyillari talab etadi, chunki, nomning joylashgan o'rnini, qanday geografik obyekt nomi ekanligini, taqalish arealini bilmasdan turib geografik nom haqida fikr yuritish mumkin emas. Ushbu sohada o'tkaziladigan tadqiqotlarda umumgeografik usullardan:geografik terminlaridan foydalanish, kartografik va dala ekspeditsiyalaridan foydalanish mumkin.

Geografik nomlar tarkibida uchraydigan geografik terminlar ifodalangan obyektni bildiruvchi so'zlar (turdosh otlar)dan tashkil topgan. Ularni ayrim ilmiy adabiyotlarda toponimik indikator deb ham atashadi. Ko'pincha, geografik terminlar (adir, ariq, buloq, Daryo, jar, soy, ko'l, tepa, tog', tosh, cho'l, quduq, qishloq, kent, obod va boshq.) joy nomlarining asosini tashkil etadi va geografik obyekt turini bildiradi. Huddi shunday terminlar dunyoning barcha tillarida mavjud, masalan, dunyo kartasida tog'ni anglatuvchi rus tilida –"Gora", tojik tilida- "ko'x", Arab tilida –"Jabal", Xitoy tilida –"Shan", nemis tilida-"Berg", ispan tilida- "Montana" kabi geografik terminlarlarni ko'plab uchratish mumkin.

Farg'ona vodiysida uchraydigan geografik terminlarni tahlil etish nafaqat, geografik nomning etimologiyasini to'g'ri ochib beradi balki, o'tmish landshaftlarning tabiiy komponentlari - relef shakli, suv, tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosining tarqalish arealini hamda jamiyatning rivojlanish bosqichlarini, shu hududda yashagan aholini iqtisodiy-ijtimoiy ko'rsatkichlarini, kasb-korini, etnik tarkibini aniqlash va tadqiq qilish imkoniyatlarini ham yaratadi.

Toponimik tadqiqotlarda keng qo'llaniladigan geografik usullardan yana biri kartografik usuldir. Bu usul geografik nomlarning o'rganilganlik darajasi, tabiiy, ijtimoiy, iqtisodiy hodisa va obyektlar bilan aloqadorligi, takroriyligi va zichligini maydon birligida aniq ko'rsatish imkonini

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

beradi. Toponimik ma'lumotlarni aniqlash turli kartografik manbalardan foydalanishni talab qiladi. Turli davrdagi kartalar yordamida tabiiy hodisa va jarayonlarning rivojlanish bosqichlarini toponimiya ma'lumotlari asosida kuzatish va tahlil qilish mumkin. Toponimik kartalar tuzish, ulardan foydalanish, umuman kartografik usulning imkoniyatlarini rus olimi E.M.Pospelov ilmiy jihatdan har tomonlama o'rgangan. Bu usul tadqiqotchidan o'rganilgan umumiy materiallardan aniq yakuniy xulosa chiqarishni talab qiladi. Shu sababdan, kartadagi ma'lumotlar matnga nisbatan yaqqol va aniq ko'zga tashlanadi hamda toponimik hodisa va qonuniyatlarni tushunish imkoniyatini beradi. Toponimik ma'lumotlarni o'zida jamlagan kartalarni tuzish va ulardan samarali foydalanish uchun geografik nomlarning elektron bazasini yaratish, zamonaviy axborot va GAT-texnologiyalarni qo'llash yaxshi natija beradi.

Geografik obyektlarni nomlanishiga asos bo'lgan geografik, tarixiy va lisoniy sabablarni bevosita joyida aniqlash uchun ko'pincha dala ekspeditsiyalar tashkil etish zarurati yuzaga keladi. Bunday hollarda dala tadqiqotlari, toponimik ekspeditsiyalar bevosita obyekt bilan joyida tanishish, toponim va geografik terminlarning mohiyatini belgilash hamda ayrim xulosalarni to'g'ri aniqlash imkonini beradi. Toponimik tadqiqotlarda ekspeditsiyalar yordamida turli sabablar bilan yo'q bo'lib ketayotgan, ammo muhim ilmiy ahamiyatga ega mikrotoponimlarni yig'ish uchun qulay imkoniyat paydo bo'ladi. Mazkur tadqiqotlarda kutilgan natijaga erishish uchun ba'zan nomlashga turtki bo'lgan ijtimoiy-siyosiy, tarixiy va geografik asoslarni bevosita joyida aniqlashga to'g'ri keladi. Bunday hollarda toponimik ekspeditsiyalar geografik obyekt bilan bevosita joyida yaqindan tanishish, joy nomining mazmun-mohiyatini aniqlashda, muhim ilmiy xulosalar chiqarishda yordam beradi. Dala toponimik tadqiqotlarda quyidagi manbaa va ma'lumotlardan foydalanish mumkin:

1. Mahalliy dala ma'lumotlari. Ular yordamida geografik nomlarning geografik obyektlar xususiyatlariga mos kelishi, ularning tarnskripsiyasini, karta va ma'lumotnomalarda uchramaydigan nomlarni o'rganish mumkin.

2. Yozma ma'lumotlar. Bularga Solnomalar, vaqf hujjatlari (yorliqlar), turli yuridik hujjatlar, kartalar, arxiv hujjatlari, lug'atlar, ma'lumotnomalar va boshqalar kiradi. Ular yordamida toponimlarning yashovchanligi, axborot tashishi, o'zgarishlarga duchor bo'lishi, nomlashda turtki bo'lgan ijtimoiy ehtiyojni belgilash kabi masalalarni oydinlashtirish imkoniyati paydo bo'ladi.

Tarixiy usullardan foydalanib, toponimning paydo bo'lgan davri, uning evolyusiyasi va transformatsiyasi hamda yangi geografik nomning paydo bo'lishiga asos bo'lgan ijtimoiy muhitni aniqlash mumkin. Shu sababdan har qanday toponimik faktni tadqiq va tahlil qilishda, aniq tarixiy voqelikni hisobga olib ish ko'rish, ulardan samarali foydalanish yaxshi natija beradi. Ko'pincha geografik nomlarning semantikasi o'ziga xos xususiyatlarga ega, ular uzoq tarixiy davr davomida shakllangan bo'lib, insonni tabiatga bo'lgan munosbatini ifoda etadi.

Geografik nom doimo kishilik jamiyatining ijtimoiy ehtiyoji tufayli paydo bo'lganligi bois, hattoki, tabiiy geografik terminlar ham toponimiyada geografik obyektning iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyatini belgilaydi. Har bir geografik nom bu til orqali ifodalangan ixcham tarix, uning asosi muayyan tarixiy davrda yaratilgan. Tarixiy usul yordamida tadqiqotchi joy nomining geografik alomatlariga yana ham jiddiy e'tibor berishi mumkin.

Toponimik tadqiqotlarda tarixiy usulni qo'llash tarafdori bo'lgan A.I.Popov o'zining tadqiqotlarida aniq tarixiy sharoit va tarixiy manbalardan xabardor bo'lmasdan turib geografik nomning kelib chiqishi haqida to'g'ri fikr bildirishi mumkin emas, deb ta'kidlagan. Toponimlar aniq bir tarixiy sharoitda paydo bo'lib, kelib chiqishi jamiyat hayoti, hududda yashayotgan yoki qachonlardir yashagan xalqlar tili bilan chambarchas bog'liq. Aniqroq aytganda, har bir tarixiy

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

davr o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini, uning geografik nomlarini o'ziga xos manba ekanligini e'tiborga olish zarur.

Geografik nomning asl ma'nosini (etimologiyasini) aniqlashda uni tarixiy paydo bo'lgan davri bilan birga o'rganish maqsadga muvofiqdir. Har bir tarixiy davr geografik nomlarning muayyan qatlami (stratigrafik)ni hosil qilgan, aniqrog'i har bir tarixiy qatlamning joy nomlarida o'ziga xos "izi", "tamg'asi" mavjud, bu haqida ikkinchi bobda batafsil to'htab o'tiladi.

Tarixiy ma'lumotlar har doim ham nomlashning tarixiy jarayonini kuzatish va tiklash imkonini bermaydi. Shu sababdan ko'pincha toponimik ma'lumotlarni tarixiy voqea-hodisalarni aniqlashda qo'shimcha manba sifatida foydalanish yaxshi natija beradi. Geografik nomlar albatta biror xalq tilidan qo'yiladi, shuning uchun har bir geografik nomning etnologik asosi mavjud bo'ladi. Bu erda geografik nom etnonim bo'lishi (xalq, urug', qabila) shart emas. U tabiiy, iqtisodiy-geografik toponimlarda ham ma'lum xalq tilidan qo'yilgan bo'ladi. Shuni hisobga olib har qanday geografik nomning qaysi xalq tilidan qo'yilganligiga e'tibor qaratiladi. Bu jihatdan toponimlarni etnologik jihatdan tadqiq etishning ahamiyati juda kattadir. Biroq bu usulni qo'llashda ham nihoyatda sinchikovlik talab etiladi. Sababi, etnooykonimlar (urug', qabila, millat, xalq nomlari bilan atalgan joy nomlari) har doim ham shu erda yashagan xalqning (etnosni) nomini bildiravermaydi, masalan, Ruminiya qachonlardir bu erni bosib olgan rimliklar nomi bilan atalsa, Boburdan so'ng Farg'ona va Samarqandda qolgan turklar o'zlarini o'zbeklar deb, vatandoshimizni Hindistonda tuzgan davlati esa "Buyuk mo'g'ullar imperiyasi" deb nomlanganligini keltirish kifoya.

Geografik nomlarning tadqiq etishda olimlar tomonidan lingvistik usullar (topoformantlar asosida, etimologik, grammatik tuzilishi) keng qo'llaniladi. Nomlarning lisoniy tarkibi, so'z va qo'shimchalari, ularning ma'nolari va birikuvi, nomlanishga asos bo'lgan ijtimoiy-lisoniy omillar o'sha davr voqeligi bilan baholanishi, izohlanishi va tadqiq qilinishi lozim.

Xulosa. Toponimlarni izohlash uchun foydalaniladigan dastlabki usul topoformantlar usulidir. Formant (lotincha "Formans" – hosil qiluvchi) deb, so'z yasaydigan, lekin mustaqil o'zi ishlatilmaydigan unsurlarga aytiladi. Toponimlarni formantlarga qarab o'rganish sohasida keyingi o'n yilliklarda katta ishlar qilindi. Bu usulda nomlar tarkibida ko'plab takrorlanadigan elementlar bir xil ma'noni anglatishi e'tiborga olinadi. Masalan, toponimikada – zor affiksi bilan ifodalangan nomlar ma'lum o'simlik turining bir hududda ko'p tarqalganini bildiradi. Jumladan: anjirzor, Anorzor, Alchazor, Bodomzor, Gulzor, Do'lanazor, qayrag'ochzor, ko'kalamzor, ko'chatzor, Limonzor, Lolazor, Mevazor, nokzor, Olvalizor, Olmazor, Olchazor, terakzor, tokzor, tolzor, tutzor, uzumzor, O'rikzor, Chamanzor, Chilonzor, Shaftolizor, Shuvoqzor, yong'oqzor, Yulg'unzor kabi qishloq va mahallalar nomi shu usulda yasalgan. Bu usul nafaqat geografik nomlarni tadqiq etishda, balki ularni yaratilishida, nomlanishida ham keng qo'llanadi, bu haqida quyida yana to'xtalib o'tamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ismoilovich, A. Y., & Erkinovich, M. A. (2022). THE USE OF HYDRONICS IN THE STUDY OF CHANGES OCCURRING IN THE PROCESS OF WATER USE. *PEDAGOGS jurnali*, *10*(1), 148-154.
2. Аҳмадалиев, Ю. И. (2014). Ер ресурсларидан фойдаланиш геоэкологияси. *T: Fan va texnologiya*, *340*.
3. Ahmadaliyev, Y. I., & Mamadalievich, X. A. (2021). Changes in the Natural Composition of the Land Fund and Its Protection (on the Example of Khojaabad District). *Academicia Globe: Inderscience Research*, *2*(04), 165-168.

4. Ismoilovich, A. Y., & Abdulxakim o'g, F. N. M. (2022). Atmosfera xavosini ifloslanishini oldini olishda tarixiy va xorijiy tajribadan foydalanish. *O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali*, *1*(10), 167-179.

5. Ismoilovich, A. Y. (2022). Анклав ҳудудларда ер ресурсларидан фойдаланишнинг амалий аҳамияти. *O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali*, *1*(10), 180-186.

6. Аҳмадалиев, Ю. И., & Комилова, Н. Ў. (2020). Этноэкологик маданиятнинг ҳудудий жиҳатлари.

7. Аҳмадалиев, Ю. И., & Абдуғаниев, О. И. (2019). The value of geoecological principles in the system of protected natural territories. In *Узбекистон ва Россияда география фани: умумий муаммолар, ҳамкорлик салоҳияти ва истиқболи* (pp. 48-50).

8. Ahmadaliyev, Y. I., & Mamadalievich, X. A. (2021). Geoecological and Farm Stress Level (on the Example of Khojaabad District). *Academicia Globe: Inderscience Research*, *2*(04), 169-174.

9. Аҳмадалиев, Ю. И. (2018). Топонимика ва географик терминшунослик. *Ўқув қўлланма.–Фарғона,"Poligraf Servis*, *44*.

10. Ахмадалиев, Ю. И. (2015). НЕОБХОДИМОСТЬ ПРОБЛЕМНОГО ПОДХОДА К ИССЛЕДОВАНИЮ ЗЕМЕЛЬНЫХ РЕСУРСОВ РЕГИОНА. *Актуальные вопросы современной науки*, *3*, 24-28.

11. Аҳмадалиев, Ю. И. (2022). Муроджон Насириллохон ўғли Мусаев. Андижон вилоятида туризмни ривожлантиришда Хонобод туристик рекреацион зонасининг ўрни. *Academic Research in Educational Sciences*, *3*(10).

12. Аҳмадалиев, Ю. И. (2009). Фарғона вилояти топонимлари. *Фарғона:—Фарғона‖ нашриёти*, 108-109.

13. Аҳмадалиев, Ю. И., & Алимджанов, Н. Н. (2020). ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ТРАДИЦИОННОГО ВОДОПОЛЬЗОВАНИЯ В ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЕ. In *География: развитие науки и образования* (pp. 375-380).

14. Ахмадалиев, Ю. И. (2015). Этноэкологическая культура населения Ферганской долины в конце XIX и начале XX века. *Социально-экономическая география. Вестник Ассоциации российских географов-обществоведов*, (4), 181-187.

15. Охунов, Н. А. Ю., & Аҳмадалиев, Ю. (2010). Фарғона вилояти ойконимларининг номланиш хусусиятлари.

16. Аҳмадалиев, Ю. И., Абдувалиев, Ҳ. А., & Алимджанов, Н. Н. (2019). ABOUT THE ETHOGEOGRAPHIC ROOTS OF PROBLEMS OF THE CONSUMING WATER AND GROUND RESOURCE. In *Геоэкологические проблемы бассейна Аральского моря: научные идеи, исследования, инновации. Сборник материалов Международной научно-практической конференции* (pp. 107-111).

17. Ахмадалиев, Ю. И. (2015). ЭТНОЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЦИОНАЛЬНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВОДНЫХ РЕСУРСОВ. *Известия Географического общества Узбекистана*, *45*, 180-183.

18. Аҳмадалиев, Ю. (1997). Анди-тутинган демак. *Фан ва турмуш*, (1).

19. Аҳмадалиев, ю. И. Андижон ва марҳамат топонимлари ҳақида. *Заҳириддин муҳаммад бобур номидаги андижон давлат университети*, *81*.

20. Jahongirmirzo Jamoliddin O'G'Li Mamatisakov, Nuriniso Valijon Qizi Alijonova, & Sarvinoz Zokirjon Qizi Rahmatullayeva (2022). QUVASOY HUDUDIDAGI TOPONIMLARNING STRATIGRAFIK TAHLILI. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2 (10), 49-55.

21. Gayratovich, M. E., Jahongir, M., & Abdugaffarovna, u. G. (2022). Main ecotours in fergana region. *O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali*, *2*(13), 136-140.

22. Mamatisakov, J., Abduqaxxorov, L., & Shaydiyev, H. (2022). Historical development of tourism and geographical aspects of its research. *Scientific impulse*, *1*(4), 379-385.

23. Mamatisakov, J. J., Qahhorova, M. M., & Mo'Minova, S. I. (2022). MAKTAB GEOGRAFIYA TA'LIMIDA FOYDALANILADIGAN MATEMATIK FORMULALAR TAVSIFI. *Academic research in educational sciences*, *3*(10), 153-161.

24. Muhitdinov, I. I. O. G. L. (2021). SO 'X daryosi oqimining shakllanishida gidrometeorologik omillarning roli. *Academic research in educational sciences*, *2*(7), 286-290.

25. Ахмадалиев, Ю. И., Маматисаков, Ж., & Мухитдинов, И. (2022). НЕОБХОДИМОСТЬ СОВМЕСТНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ И ОХРАНА ПРИРОДНЫХ РЕСУРСОВ ПРИГРАНИЧНЫХ ТЕРРИТОРИЙ. *Scientific Impulse*, *1*(3), 732-738.

26. Mamatisakov, J. J. O. G. L., Abduqaxxorov, L. S. O. G. L., Rahmatjonov, A. A. O. G. L., & Vahobjonov, A. A. O. G. L. (2021). Regional Aspects Of Development Of Tourist Routes. *Scientific progress*, *2*(8), 57-60.

27. Gayratovich, M. E., Jahongir, M., & Musajonovna, A. F. (2022). SPELEOTOURISTIC POSSIBILITIES OF FERGANA VALLEY. *Scientific Impulse*, *1*(4), 66-70.

28. Mamatisakov, J. (2022). 1 Òzbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005) 2 Ziyo. uz (sayti). *Scientific Impulse*, *1*(2), 587-590.

29. Махкамов, Э. Г., & Маматисаков, Ж. (2021). РЕКРЕАЦИЯ ВА ТУРИЗМ ОБЪЕКТЛАРИНИ ҲУДУДИЙ ЖОЙЛАШТИРИШНИНГ ГЕОГРАФИК ЖИҲАТЛАРИ. *ГЕОГРАФИЯ: ПРИРОДА И ОБЩЕСТВО*, *2*(1).

30. Mamatisakov, J. (2022). IMPROVING STUDENTS'GEOLOGICAL KNOWLEDGE BY SCHOOL GEOGRAPHY EDUCATION. *Academic research in educational sciences*, *3*(10), 88-94.

31. Ilhomjon Ihtiyorjon O'G'Li Muhitdinov, & Jahongirmirzo Jamoliddin O'G'Li Mamatisakov (2021). FARG'ONA VODIYSINING JANUBIY QISMI GIDROGRAFIYASI. Scientific progress, 2 (3), 975-980.

32. Mamatisakov, J., Egamberdi, B., & Dostonbek, M. (2022). TERRITORIAL ASPECTS OF THE DISTRIBUTION OF ETHNOOYCONYMS OF FERGANA REGION. *Scientific Impulse*, *1*(2), 591-595.

33. Ismoilovich, A. Y., & Erkinovich, M. A. (2022). THE USE OF HYDRONICS IN THE STUDY OF CHANGES OCCURRING IN THE PROCESS OF WATER USE. *PEDAGOGS jurnali*, *10*(1), 148-154.

34. О. И. Абдуганиев, & А. Мадрахимов (2022). МУҲОФАЗА ЭТИЛАДИГАН ТАБИИЙ ҲУДУДЛАРНИНГ АСОСИЙ ТОИФАЛАРИ ВА ТАСНИФЛАРИ. Academic research in educational sciences, 3 (10), 136-143.

35. Gayratovich, M. E., Ablazbek, M., & Nematulloh, F. (2022). ISSUES OF TOURISM DEVELOPMENT IN MOUNTAIN REGION. *Scientific Impulse*, *1*(4), 71-75.

36. Vosiljonov, A. (2022). Basic theoretical principles of corpus linguistics. *Academicia Globe: Inderscience Research*, *3*(2), 1-3.

37. Vosiljonov, A. (2022). Lingvistik tadqiqotlarda korpus o 'rganish obyekti sifatida. *Ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali*, *2*(11), 176-182.

38. Vosiljonov, a. (2022). Pragmalingvistika va uning tahliliy shakllanish tarixi. *Science and innovation*, *1*(b8), 99-105.

39. Vosiljonov, a. (2022). Pragmalinguistics and the history of its analytical development. *Science and innovation*, *1*(8), 99-105.

40. Vosiljonov, a., & isaqova, x. (2023). Effectiveness of mother tongue education in the primary grades. *International journal of advanced research in education, technology and management*, *2*(2).

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

41. Dilshodbek o‘g‘li, R. S., & Boxodirjon o‘g‘li, v. A. (2022). Xorij psixologlarining ishlarida shaxsning tadqiq etilishi. *Innovative developments and research in education*, *1*(12), 39-47.



WORDLY
KNOWLEDGE